

ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН

**ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ ТОҶИКИСТОН
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**

МАХЗАНИ ИЛМ/ПАЁМИ ДОНИШКАДА, 2021, № 2.

МАВОДИ

он-лайн ва офф-лайн анҷумани илмӣ-амалии байналмилалии апрелӣ дар мавзӯи “Масоили мубрами улуми иҷтимоӣ-гуманитарӣ, риёзӣ ва дақиқ дар замони муосир”, 26 апрели соли 2021 дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент

СОКРОВИШНИЦА НАУКИ/ВЕСТНИК ИНСТИТУТА, 2021, № 2.

МАТЕРИАЛЫ

научно-практической международной апрельской он-лайн и офф-лайн конференции, на тему «Актуальные проблемы общественно-гуманитарных, точных и естественных наук в современную эпоху», 26 апреля 2021 года в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент

TREASURY OF SCIENCE/BULLETIN OF THE INSTITUTE, 2021, No. 2.

MATERIALS

of the scientific and practical international April online and off-line conference, on the topic "Actual problems of social and humanitarian, exact and natural sciences in the modern era", April 26, 2021 at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent.

Панҷакент – 2021

ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН

**ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ ТОҶИКИСТОН
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**

МАХЗАНИ ИЛМ/ПАЁМИ ДОНИШКАДА, 2021, № 2.

МАВОДИ

он-лайн ва офф-лайн анҷумани илмӣ-амалии байналмилалии апрелӣ дар мавзӯи “Масоили мубрами улуми иҷтимоӣ-гуманитарӣ, риёзӣ ва дақиқ дар замони муосир”, 26 апрели соли 2021 дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент

СОКРОВИШНИЦА НАУКИ/ВЕСТНИК ИНСТИТУТА, 2021, № 2.

МАТЕРИАЛЫ

научно-практической международной апрельской он-лайн и офф-лайн конференции, на тему «Актуальные проблемы общественно-гуманитарных, точных и естественных наук в современную эпоху», 26 апреля 2021 года в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент

TREASURY OF SCIENCE/BULLETIN OF THE INSTITUTE, 2021, No. 2.

MATERIALS

of the scientific and practical international April online and off-line conference, on the topic "Actual problems of social and humanitarian, exact and natural sciences in the modern era", April 26, 2021 at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent.

Панҷакент - 2021

3. Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане. Т., 1997. 14стр.
4. Исоқова Т. Х.Хўжақулов. Демография статистикаси. Ўқув кўлланма Тошкент-2004 й. 336. 556. 866.
5. Демографический энциклопедический словарь «Советская энциклопедия», 1985, с. 397.

To'rayeva Guli Bahriddinovna,
BuxDU, Buxoro tarixi kafedrası o'qıtuvchısı

RUS SAYYOHLARI VA ELCHILARI ESDALIKLARINING TARIXIY - MANBAVIY QIYMATI(XVIII-XIXASRLARDA)

Annotatsiya: Maqolada XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklariga tashrif buyurgan rus sayyoh-elchiliklari Florio Beneveni, Mitropolit Xrisanf, **Negri missiyasi, Butenev missiyasi, Ignatyev missiyalari faoliyati va ilmiy-esdaliklari haqida ma'lumot berilgan.**

Kalit so'zlar: Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari, Rossiya elchilari va sayyohlarining esdaliklari, Pyotr I, Astraxan, Florio Beneveni, Mitropolit Xrisanf, **Negri missiyasi, Butenev missiyasi, Ignatyev missiyalari.**

Tarixiy manba tushunchasi tarix fanlari orasida alohida, muhim ahamiyatga ega tushunchalardan sanaladi. Manba o'tmish haqida xabar (guvohlik) berib, o'tmish tarixiy jarayonlarni o'rganishda xoh yozma shaklda, xoh ashyoviy (marosimlar, suratlar, belgilar, urf-odatlar va boshqalar) ko'rinishda eng asosiy va muhim omillardan sanaladi. Tarixchilarning umumiy e'tirof etishicha, tarixiy manbalarsiz tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish mumkin emas.

Manbalardagi axborotga asosan tarixchi o'tmish qiyofasini (tarixiy jarayonlarni, hodisalarni, voqealarni, shaxslar va ular bilan bog'liq jarayonlar haqidagi ma'lumotlar kabilarni) shakllantiradi. Ko'p hollarda o'tmish manzarasining aks ettirilishi tarixchi tomonidan tanlab olingan manbalarga, ularning ilmiy va axborot salohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Manbalarning eng qimmatlisi dastlabki ma'lumotlar yoritib berilgan manba lar, ya'ni birlamchi manbalardir. Abu Rayhon Beruniyning qayd etishicha, "xabar xabarchilar sababli rost va yolg'on tusini oladi".¹

Arab, Xitoy va Rossiya elchilari va sayyohlarining esdaliklarida ham tariximizni chuqur va atroflicha o'rganish uchun zarur daliliy ma'lumotlar ko'p. Shu bois esdaliklar xam muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Markaziy Osiyo Rossiya va uning sarmoyador guruhlarini har jihatdan: harbiy strategik, ya'ni uning Hindiston va Xitoyga yaqinligi, zaminning boyligi va xalqining soddadil va mehnatsevarligi bilan qiziqtirib kelgan. Markaziy Osiyoga qiziqish, uni Rossiyaning mustamlakasiga aylantirish yulidagi harakat podsho Mixail Fyodorovich (1613-1645 yy.) davridan boshlandi va ikki yarim asrdan keyin Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklarini buysundirish bilan yakunlandi.²

Rossiya hukumati uzining bu siyosatini amalga oshirish uchun Markaziy

Osiyoni yaxshi bilgan, keng ma'lumotli diplomatlari va harbiylaridan foydalangan. Ular orasida savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun, aslida esa mamlakatdagi harbiy-siyosiy vaziyatni o'rganish, Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklarining qo'shni davlatlar: Hindiston, Eron, Turkiya va Xitoy bilan qanday munosabatda ekanligini aniqlash va

¹ D.A.Alimova, Z.A. Ilxamov. Tarix fani metodologiyasi. O'quv qo'llanma T.: O'zbekiston faylasuflari

milliy jamiyati nashriyoti, 2018.324-bet

² Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008.В-246.

Markaziy Osiyo shaharlariga olib boridigan yaqin va qulay yullarni aniqlab, bostirib kirishigacha kechgan ikki yuz yil mobaynida mamlakatimizga Rossiyadan kelib ketgan ba'zi elchilik va harbiy mutaxassislarining faoliyati ixcham tarzda yoritildi.

Rossiya elchilik maxkamasining ma'sul xodimi Florio Beneveni elchiligi Abulfayzxonning Rossiyaga yuborilgan elchiligiga Qulibek boshchiligidagi elchilikka javoban yuborilgan. 1717 yil yozida Buxoro xoni elchisi Qulibek Peterburgda bo'lib Pyotr I bilan uchrashadi. Shvedlar ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan Pyotr I ga qutlov maktubini topshiradi.

Abulfayzxon o'z maktubida ayni paytda Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so'ragan edi. Bunga javoban Rossiya hukumati tomonidan Florio Benevenini elchi qilib yuboriladi. Florio Beneveni uchun tuzilgan va 1718 yil 13 iyul kun Pyotr I tarafidan tasdiqlangan qo'llanmada elchiga quyidagi topshiriqlar berildi.¹

Florio Beneveni Buxoro xoni huzuriga podsho hazratlarining elchisi sifatida boradi. Unga Buxoro xoni nomiga yozilgan maktub topshiriladi. Elchi Peterburgdan Moskvaga qaytib borishi hamono Astraxanga jo'nab ketadi. Astraxandan Buxorogacha Abulfayzxonning uni Astraxanda kutib turgan elchisi bilan birga boradi.

Florio Beneveni yo'lda, ayniqsa Buxoro xonligi xududlaridan o'tayotganda hamma yerlarni xususan bandargoxlar, qa'lalar va shaharlarni diqqat bilan ko'zdan kechirib boradi.

Xon bilan uchrashganda uni Eron va boshqa davlatlarning elchilari qatorida zo'r hurmat va ehtirom bilan qabul qilinishiga erishish.

Buxoroda bo'lganida, Buxoro xonligi qa'lalari, qo'shini, otliq va piyoda askarlarining umumiy soni, ularning qurol-aslahalari va qancha zambaragi borligini, qo'shindagi umumiy axvol, qa'lalarning qo'riqlanishini bilib olsin.

Abulfayzxonning Eron shohi va Xiva xonlari bilan munosabati qay darajada ekanligini aniqlash. Xiva xoniga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklif etilsin.

Buxoroda qanday tovarlar ishlab chiqariladi va ular qaerlarga olib borib sotiladi? Buxoroga dengiz yoki quruqlikdan qaysi yo'l bilan boorish mumkin? Buxoroda qaysi rus tovarlariga ehtiyoj katta? Rossiya bilan savdo-sotiqni kuchaytirish mumkinmi? Mana shu masalalarni aniqlasin.

Amudaryoda oltin bormi? Kabi topshiriqlar elchilar zimmasiga o'z podshosi tomonidan yuklatilgan edi.²

Florio Beneveni 1721 yil 6 noyabrda Buxoroga yetib keldilar. Florio Beneveni va uning hamroxlari Buxoroga 10 verst 69 qolgandayo'l ustida Buxoro to'pchiboshisi boshliq 50 kishidan iborat saroy mulozimlari kutib oldilar.

Rossiya elchisi Buxoroda uch yarim yil, 1721 yil 6 noyabridan to 1725 yil 8 apreliga qadar turdi va podshosining yuqoridagi topshiriqlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Ularni Sankt-Peterburgga ochiq va shiflangan xatlar orqali jo'natib turadi. Hukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F Beneveni 1725 yil 8 aprelda Peterburgga qaytib ketadi. F. Beneveni to'plagan ma'lumotlar Rossiya hukumati, uning tashqi siyosati uchun kelajakda qo'l kelib qoldi.³

Mitropolit Xrisanfning O'rta Osiyoga qilgan sayohati kundaligi ham muhim ma'lumotlar bazasi bo'lib, bir paytlar rus harbiy ekspeditsiyasiga boshchilik qilgan Valeriyan Zubov qo'lida bo'lgan. Kundalik, ba'zi shahar va viloyatlar o'rtisidagi masofa, aholisining umumiy soni haqidagi noaniqliklarni hisobga olmaganda, katta qimmatga ega. Unda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, xalqining turmush sharoiti, e'tiqodi haqida, shuningdek, O'rta Osiyoda istiqomat qilib turgan rus va eronlik asirlarning ahvoli haqidagi qisqa, lekin o'ta muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, Buxoro xonligining yirik

¹ Alimova R.R. O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan qilgan savdo iqtisodiy munosabatlari. Toshkent-2017. B-43

² Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. В-246.

³ Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. В-252.

shaharlaridan Samarqand, Buxoro va Balx hamda Xorazmning XVII-XIX asrlardagi poytaxti Xiva haqida Xrisanf mana bularni yozadi: **Samarqand haqida:** «Samarqand shu kunlarda deyarli bo'sh qolgan. Uni egallab olgan samarqandlik noib (Rajabxon) uni ilgari gidek obod qilish uchun qanchalik urinmasin, mehnati zoe ketdi. Eshitishimcha, uning tevarak atrofdaridagi tog'larda konlar bor, tabiati yoqimli...Tevarak atrofida ham o'zbeklar istiqomat qiladilar». **Buxoro haqida:** «Buxoro – to'q shahar. Unda savdogarlar va boshqa (boy-badavlat) odamlar ko'p. U asosan kumush,oltin, marvarid va qimmatbaho toshlarga boy. Xon tez-tez Balx va Mashhad ustiga talon-taroj yurishlari uyushtirib turadi». **Balx haqida:** «Balx viloyati haqida gapirmasam gunonhi azim bo'ladi. Agar Buxoro hukmdorlari tez-tez hujum uyushtirib, uni talon-taroj qilmaganlarida u obod, qudratli va boy viloyat bo'lur edi. Nodirshoh vafot etgandan beri shu vaqtgacha afg'on podsholari qo'lida. Uning qal'asi chor tarafdin (suv bilan to'ldirilgan xandaq bilan o'ralgan) tepalikda joylashgan. Balx ataluvchi katta qal'asi bor. Qal'a hozirgacha mustaqil. Ahmadshohdan boshqa hech kimga bo'ysunmaydi.Devorlari pishiq g'ishtdan...»Buxoro xonligining mineral boyliklari haqida Xrisanf quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Buxoro bilan Balx o'rtasida baland bir tog' bor. Unda qizil tusli marmar (parchalari)ga o'xshash tusdagi tuz konlari mavjud. O'sha viloyatda shunday tog'lar ham mavjudki, ularda har turli ma'dan konlari bor. Bu tog'larda o'zbeklarning qo'ng'irot qavmi istiqomat qiladi. Bu tog'lar shimolda Samarqandgacha, sharqda Badaxshongacha cho'zilgan. Buxoroda istiqomat qilib turgan asarlar haqida mana bu ma'lumot keltirilgan: «Buxoroda ko'p rus asirlari bor, eronliklardan 6000ga yaqin asir bor. Ular xo'jayinlariga qarshi qo'zg'olon ko'tarish darajasiga yetishgan». **Xiva shahri haqida o'qiyamiz:** «Yerli aholi ikki toifadan: mahalliy kotliklar (Xrisanf ularni Kidity deb ataydi) va boshqa yerlardan ko'chib kelgan qo'ng'irotlardan tashkil topgan. Ular Kotdan chiqqan vazir o'ldirilgandan beri o'zaro yovlashib keladilar. Kotliklar 5000 ga yaqin xonadondan iborat. Ular o'ta kek saqllovchi xalq. Kotliklarning tayyor qo'shini yo'q. (Zarur bo'lib qolganda) kelishib odam yollaydilar. Oyiga kimga o'n so'm, kimga bir so'm beradilar. Aytishlaricha, xivaliklarning harbiy kuchi 20 000 kishini tashkil qilar emish. Lekin bu gap to'g'ri emas, masalan, o'tgan yili, men o'sha yerda ekanligimda Avazbiy Inoqning topshirig'i bilan aholini hisob-kitob qilganlarida, mamlakatda hammasi bo'lib 3000 xonadon borligi aniqlangan. Lekin hukmdorga yaxshi ko'rinish uchun (qo'shin sonini) 20 000 kishidan iborat deb aytadilar. Qo'ng'irotlilar jahldor xalq. Boshliqlari boy-badavlat kishilar,oddiy xalq esa qashshoq... Xivaliklarning ko'pchiligi Astraxan va Buxoro bilan savdo-sotiq olib boradi. Kotliklar kelgindilar (qo'ng'irotliklar)dan qutilish uchun Rossiya bilan ittifoq tuzishni xohlaydilar, lekin (ruslarning urush ochmoqchi bo'lib turgani haqida) tarqalgan xabarning oqibatidan qo'rqar edilar. Mingqishloq turkmanlari ham shuni istar edilar, lekin qozoqlar xavfidan qo'rqardilar». ¹Bunday dalil va ma'lumotlarni mitropolit Xrisanfning axbotrotlarida ko'p uchratish mumkin. **Negri missiyasi**– Erondagi rus elchixonasining katta maslahatchisi A. F. Negri (1784—1854) rahbarligida savdo shartnomasi tuzish uchun 1820 yilda Buxoroga yuborilgan missiya hisoblanadi . Missiya tarkibi polkovnik Ye. K. Meyendorf, paleontolog X. G. Pander, zoolog va botanik E. A. Eversman, topograflar Valxovskiy va Timofeyev, tarjimon Yakovlev va boshqalardan iborat bo'lgan. Negri missiyasi biror aniq bitimning imzolanishiga erisha olmagan bo'lsada, kelajakda Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalarning tiklanishiga, savdo-sotiqning yo'lga qo'yilishiga hamda har ikki davlat diplomatik munosabatlarida iliq vaziyatning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ular jususlik xarakteridagi ma'lumotlarni ham to'plashgan. Negri missiyasi a'zolaridan Ye. K. Meyendorf va E. A. Eversman ana shu safar xotiralari asosida materiallarga boy bir necha kitob yozib qoldirganlar.

Butenev missiyasi — 1841-42 yillarda Buxoroga yuborilgan chor hukumati jususlik missiyasi. Uning asosiy vazifasi Afg'oniston va Eron orqali Turkistonga

¹ Мухаммаджонов А., Нейматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкен., 1957.

kirishga intilayotgan Angliyaga to‘sqinlik qilish, Buxoro xonligida Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy ta‘sirini mustahkamlash, Buxoro tuprog‘ining geologik tuzilishini o‘rganish va yer osti boyliklarini tekshirish, Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasida savdo va elchilik munosabatlarini mustahkamlovchi shartnoma tuzish, savdo-sotiqqa oid ma‘lumotlar to‘plash, Buxoro va unga qo‘shni mamlakatlar to‘g‘risida ma‘lumot yig‘ish kabilardan iborat edi. Butenev missiyasi tarkibida K. F. Butenev (elchi), F. Bogoslovskiy (tog‘ injeneri), N. V. Xanikov (geograf), A. Leman (naturalist), Ya. Yakovlev (topograf), Plotnikov (sharqshunos), Chalpanov va Petrov (tog‘ texniklari), K. Kozlov va Lepeshkov (oltin yuvuvchi mutaxassislar), Aitov (tarjimon) hamda o‘nta kazak bo‘lgan. Butenev missiyasi 1841-yilda 15-mayda Orenburgdan chiqib, 1841-yil 5 avgustda Buxoroga yetib keldi. Butenev missiyasi Zarafshon vodiysida ko‘pgina geologik tekshirishlar olib bordi. Natijada yuqori Zarafshonda yer osti boyliklaridan: temir, mis, ko‘mir, qo‘rg‘oshin, grafit, feruza va hatto oltin, kumush borligi aniqlandi. Ammo Butenev missiyasining Buxoro xoni bilan savdo va diplomatik shartnoma tuzish yuzasidan olib borgan muzokaralari uncha natija bermadi. Shunga qaramay, Butenev missiyasi a‘zolari Buxoro to‘g‘risida juda boy geografik, etnografik, tabiiy va tarixiy ma‘lumot to‘pladilar. Topograf Ya. Yakovlev missiya bosib o‘tgan marshrutlar tarhini chizgan va Buxoro xonligining xaritasini tuzgan. 1843-yilda N. V. Xanikovning «Buxoro xonligi tavsifi» kitobi bosilib chiqdi. K. F. Butenevning «Buxoro mineral boyliklari», «Buxorodagi po‘lat toblash usuli haqida mulohazalar», «Buxorodagi rus konchilik zavodlari mahsulotini sotishni rivojlantirish to‘g‘risida» 1842 yilda nomli ilmiy maqolalari hamda A. Lemanning nemis tilida 1841-42 yillarda Orenburgdan Buxoro va Samarqandga sayohati haqida asari bosilib chiqdi.¹

Ignatyev missiyasi — 1858 yilda rus podshosi hukumati tomonidan Xiva xonligi va Buxoro amirligi bilan siyosiy hamda savdo munosabatlari o‘rnatish bahonasida, aslida josuslik maqsadida polkovnik N.P.Ignatyev boshchiligida yuborilgan elchilar missiyasi. Ignatyev missiyasi 1858-y. mayida 50 kishilik qo‘riqchi otryad bilan Orenburgdan chiqib, Amudaryo yoqalab, iyul oyida Xivaga keladi va xon hukumati bilan savdo shartnomasi tuzadi. So‘ngra Buxoroga kelib imtiyozli savdo shartnomasi tuzishga, zindonda yotgan rus fuqaro va asirlarni ozod etishga erishadi. Ignatyev missiyasi to‘plagan ma‘lumotlar Turkistonning Rossiya tomonidan istilo etilishida muhim rol o‘ynagan.

XIX asrning 30 yillarida Rossiyada Buxoroning qo‘shni davlatlar bilan aloqalari haqidagi nashrlar paydo bo‘la boshladi. Ko‘zga ko‘ringan rus sharqshunosi P.S.Savelev, «Buxara v 1835 godu» maqolasida Buxoro xonligida bo‘lgan sayyohlar haqida ma‘lumot beradi. Muallif Buxoroning o‘sha davrdagi vaziyatini somoniylar davri bilan taqqoslab «Buxoro hali ham Sharq shaharlari orasida birinchi o‘rinda turadi», deb yozgan edi.

Savelev Sharq davlatlarining savdo munosabatlarida Buxoroning o‘rni hadida gapirib, uni «O‘rta Osiyoning muhim savdo ombori» deb yozgan edi va u yerda 4000 ta hindlar yashaydi, deb ta‘kidlagan edi. U Buxoroni O‘rta Osiyoning markaziy savdo shahri deb baholagan edi.²

P.S.Savelev asosiy diqqatini karvon yo‘llari tavsifiga qaratgan edi. U Buxorodan Eron va Afg‘onistonga boradigan uchta karvon yo‘li hadida, aynan, Mashhad, Hirot va Qobulga qatnaydigan hamda Buxorodan Qobul orqali Hindistonga o‘tadigan yo‘llar to‘g‘risida yozib qoldirgan edi.

Savelevning asari Rossiyaning O‘rta Osiyo bilan savdosi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Asarda Buxoro xonligining ahvoli, ma‘muriy boshqaruv tizimi, Buxoro ning Sharq bilan savdodagi roli haqida ma‘lumot beriladi.³

¹ Ekspeditsiya v Buxaru v 1841—42gg., SPb, 1936, Muhammadjonov A. R., Ne‘matov T. N., Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doyr ba‘zi manbalar, T., 1957.

² Savelev P.S. Buxara v 1835 godu. — SPb., 1836. - S. 13.

³ Savelev P.S. Buxara // Ensiklopedicheskiy leksikon. T.7. — SPb., 1836. — S.460.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sayyoh-elchiliklar ma'lumotlari negizida XIX asrda Rossiyada sharqshunoslik ilmi fan sifatida shakllangan. Birinchi ilmiy markazlar — Qozon, Peterburg, Moskva universitetlari paydo bo'lib, unda sharqshunos mutaxassislar tayyorlana boshlaydi. Ko'pgina sharqshunoslar chet elliklar bo'lgan (X.D.Fren, B.A.Dorn) yoki endigina Rossiyaga qo'shilgan milliy

hududlardan kelgan edilar (O.I.Senkovskiy). Shuning uchun birinchi rus sharqshunoslarining asarlari rus tilida emas, balki nemis va fransuz tillarida bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova D.A., Ilxamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. O'quv qo'llanma T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. 324-bet
2. Alimova R.R., O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan qilgan savdo-iqtisodiy munosabatlari. Toshkent-2017. B-43-50
3. Savelev P.S. Buxara // Ensiklopedicheskiy leksikon. T.7. — SPb., 1836. — S.460.
4. Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. B-246.
5. Мухаммаджонов А., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкен., 1957.
6. Valiyeva. XIX asr birinchi choragida Buxoro-Rossiya diplomatik aloqalariga doir. Sharqshunoslik.:1999. № 9. -B.122
7. Семенов А.А. К истории дипломатических сношений между Россией и Бухарой в начале XIX века. Изв АН Уз ССР. -1951. -№ 1. -С. 85-95
8. Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами. —Т.: 1982. —С. 80-81
9. 4.Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.; Наука, 1975. - С. 56
10. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI середина XIX в.). М.: ИВЛ, 1958.
11. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX в.). М., Наука. 1974.
12. Йўлдашев М.Й. XV-XIX асрларда Бухоро билан Россия ўртасидаги элчилик муносабатлари. Тошкент Ўздавнашр. 1957.

Тўраева Гули Баҳриддиновна,
БухДУ, Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

РУС ШАРҚШУНОСЛИГИ ТАРИХИ (XVIII- XIX асрларда)

Аннотация: Мақолада Россияда шарқшунослик илмининг ривожланиши тарихи ва давлат сиёсатида шарқшунос кадрларга бўлган эҳтиёж ва талаблар ҳақида фикр билдирилган. Шарқ мамлакатларининг тарихий ва этнографик, нумизматик, қўлёзма меросининг Россия музейларида жамланиши тарихи таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Шарқшунослик, Ҳарбий ва дипломатик идоралар, Қозон ва Санкт-Петербургда Шарқ қўлёзмалари фондлари, Осиё музейи, илмий-дипломатик миссиялар.

Шарқшунослик илми бу – Осиё ва Шимолий Африка халқларининг тарихи, фалсафаси, дини, маданий ёдгорликлари, санъати, тиллари, адабиёти, иқтисодиёти ва ҳозирги ҳолатини ўрганадиган илмий фанлар тўплами ҳисобланади.

Шарқшунослик фанларининг таркибий қисмларига қуйидаги йўналишлар кирази: япон, хитой (синология), ҳинд, туркология, миср, эроншунослик, семитология

127.	Сафаров С. С., Искандаров Мухриддин	ТАҲИЯ ВА ТАКМИЛИ ВОСИТАҲОИ АУДИОВИЗУАЛИ ДАР РАВАНДИ ТАЪЛИМ	498
128.	Саидов У.	АБДУЛЛОҶОН ИСОҚОВ – КАШШОФИ САРАЗМ	500
129.	Сайфиддинов Аброрхон Фахриддинович	МАСЪАЛАҲОИ ҶОЙГИРКУНИИ ИСТЕҲСОЛОТ ВА РУШДИ КИШОВАРЗӢ ДАР ВИЛОЯТИ СУҒД	502
130.	Сайфиллаева Д.К.	ФИЛОСОФСКОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ АБУ ХАМИДА ГАЗАЛИ	504
131.	Сайхуна Ш., Давлатов Ш., Фозилова Т.	ТАҒЙИРӢБИИ ТАСАВВУРОТҲО ОИД БА ИСБОТИ МАТЕМАТИКӢ	507
132.	Сайхуна Шавкатзода, Ашӯркулов Фирдавс	ҲАЛЛИ MASЪАЛАИ ДРИХЛЕ БАРОИ МУОДИЛАИ ЛАПЛАС ДАР СОҲАИ РОСТКУНҶА	510
133.	Сафарова Севара Бурхоновна	ИГРА КАК СРЕДСТВО ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ	515
134.	Собиров У.Б.	САДРИДДИН АЙНИЙ ВА УНИНГ ЖАДИЧИЛИК ҲАРАКАТИДА “БУХОРО ИНҚИЛОБИ ТАРИХИ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР” АСАРИНИНГ ӮРНИ	517
135.	Sulaymonbekov Suhaylbek Sobirbek o'g'li	TURKISTON JADIDCHILIGI OTASINING ILMIY-MA'RIFIY QARASHLARI VA UNING ZAMONAVIY HAYOTIMIZDAGI O'RNI	520
136.	Тангрикулов Жамшид Эркинович	ҚАЙТА ҚУРИШ СИЁСАТИ: САБАБЛАР ВА НАТИЖАЛАР	524
137.	Тангрикулов Жамшид Эркинович	ХІХ АСРНИНГ II ЯРМИ – 1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ГАЗЕТА ВА ЖУРНАЛЛАР НАШРИ ТЎҒРИСИДА	527
138.	Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи	ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЦЕЛИ КАК ФАКТОР УСПЕШНОСТИ ПРОЦЕССОВ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	531
139.	Тиллаходжаева Хуршида Джумаваевна	ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ ФУҚАРОЛИК ҲОЛАТИ ДИНАМИКАСИНИ ӮРГАНИШ	535
140.	То'rayeva Guli Bahriddinovna	RUS SAYYONHLARI VA ELCHILARI ESDALIKLARINING TARIXIY - MANBAVIY QIYMATI(XVIII- XIXASRLARDA	539
141.	Тўраева Гули Бахриддиновна	РУС ШАРҚШУНОСЛИГИ ТАРИХИ (XVIII- XIX асрларда)	543
142.	Тургунов Абдурахмон Гулумжон угли	ЗАПАД И ВОСТОК: РАСЦВЕТ ЦИВИЛИЗАЦИЙ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ	547
143.	Turdiyev Bexruz Sobirovich	BEHBUDI'S VIEWS ON THE SPIRITUAL RENEWAL OF SOCIETY	550